

UDK: 130.2:130.3

“HARBIY MADANIYAT” TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY- FALSAFIY MOHIYATI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17971991>

B.X.Jurayev

O'zMU HTO'M TMIU sikli katta o'qituvchisi, dotsent

КОНЦЕПЦИЯ «ВОЕННОЙ КУЛЬТУРЫ» И ЕЕ СОЦИО- ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ.

THE CONCEPT OF “MILITARY CULTURE” AND ITS SOCIO- PHILOSOPHICAL ESSENCE.

Annotatsiya

Mazkur maqolada harbiy madaniyat, har xil tarixiy bosqichlarda turli xil munosabatlar va xususiyatlar sifatida so'z olib boriladi. Ta'kidlash joizki, harbiy madaniy hodisalarni har xil nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Ular harbiy madaniyatni nafaqat o'ziga xos xususiyatlarni belgilabgina qolmay, balki jamiyat hayotining ko'plab xususiyatlarini ifoda etadigan konsentrlangan (o'rganish darajasi avvalgi tarkibning birligi bilan bog'liq va undan murakkabligi va hajmi jihatidan farq qiladi) ma'lumotlar to'plangan.

Kalit so'zlar

Madaniyat, jamiyat, urush, armiya, xavfsizlik, ma'rifatlilik, xavf-xatar, qonun-qoidalar, kuch-qudrati, axloqi, baxt-saodati, buzish, vayron.

Аннотация

В данной статье рассматривается военная культура как совокупность отношений и характеристик на разных исторических этапах. Стоит отметить, что явления военной культуры могут изучаться с разных точек зрения. Они представляют собой концентрированные (уровень исследования связан с единством предыдущего содержания и отличается от него сложностью и объемом) данные, которые не только определяют специфические особенности военной культуры, но и выражают многие черты общественной жизни.

Ключевые слова

Культура, общество, война, армия, безопасность, просвещение, опасность, законы, власть, мораль, счастье, разрушение, уничтожение.

Abstract

This article discusses military culture as a set of relations and characteristics at different historical stages. It is worth noting that military cultural phenomena can be studied from different perspectives. They are concentrated (the level of study is related to the unity of the previous content and differs from it in complexity and volume) data that not only determine the specific features of military culture, but also express many features of social life.

Keywords

Culture, society, war, army, security, enlightenment, danger, laws, power, morality, happiness, destruction, destruction.

KIRISH

Harbiy madaniyat, har xil tarixiy bosqichlarda turli xil munosabatlar va xususiyatlar sifatida tushunilgan. Ta'kidlash joizki, harbiy madaniy hodisalarni har xil nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Masalan, harbiy madaniyatni davlatning "siyosiy ongli tuzilma"si sifatida, ikkinchi tomondan esa, milliy madaniyatning bir shakli sifatida talqin qilish mumkin. Ular harbiy madaniyatni nafaqat o'ziga xos xususiyatlarni belgilabgina qolmay, balki jamiyat hayotining ko'plab xususiyatlarini ifoda etadigan konsentrlangan (o'rganish darajasi avvalgi tarkibning birligi bilan bog'liq va undan murakkabligi va hajmi jihatidan farq qiladi) shaklda ham bo'lishi mumkin.

Bevosita maqolada "madaniyat", "jamiyat", "urush", "armiya" va "xavfsizlik" boshqa bir qator atamalar mazmuniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu atamalar yangi bo'lmasada, O'zbekiston milliy mustaqilligi sharoitida olib borilayotgan ichki, tashqi va harbiy siyosat natijasida ularning mazmun va mohiyati o'zgardi, yangicha qarashlar vujudga keldi. Tadqiqot obyektimizni nazarda tutgan holda, madaniyat tushunchasini nazariy jihatdan ko'rib chiqamiz, chunki bu so'zining mazmun- mohiyatini bilish, bizning tadqiqot mavzumiz uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishlar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi."⁸⁷ Bundan tashqari u " ma'rifatlilik", "tarbiya ko'rgan" ma'nolarida

⁸⁷ Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б.53.

ham keladi⁸⁸. Bu soʻz arab tilidagi “madina” hamda “iyat” soʻzlarining birikishidan hosil boʻlgan boʻlib, “shaharga oid” degan maʼnoni anglatadi. Qadimdan madaniyat tushunchasiga olimlarning turli qarashlari ham mavjud boʻlgan. Masalan, nemis faylasufi F. Shiller kishilarning ichki dunyosi, ularning insoniylik fazilatlarini, maʼnaviylik darajasini madaniyat, deb tushuntirgan. Ingliz etnografi, antropologiyaning asoschilaridan biri Eduard Teylor (1832-1917) “madaniyat” atamasini ilm-fanga kiritdi. Madaniyatga berilgan taʼriflar ichida eng mukammali Eduard Taylorning taʼrifi deb hisoblanadi. Uning nazarida, “madaniyat – insonning kuch-qudrati, axloqi, baxt-saodati taraqqiy etishiga bir vaqtning oʻzida koʻmaklashish maqsadida alohida shaxsning va butun jamiyatning yuksak darajada tashkil qilinishi yoʻli bilan insoniyatning kamol topishidir”⁸⁹. Э.Б. Taylorning ushbu taʼrifi har tomonlama mukammal boʻlsada, hozirda madaniyatning yangi qirralari kashf qilinmoqda. Shuning uchun E. Taylorning madaniyatga bergan taʼrifi mohiyatini saqlab qolgan holda, quyidagicha taʼrif berilgan:

“Madaniyat – inson jamiyat aʼzosi sifatida oʻzlashtirgan bilimlarni, inonch-eʼtiqodlarni, sanʼatni, axloq va qonunlarni, urf-odatlarini, shuningdek, uning boshqa qobiliyati va koʻnikmalarini oʻz ichiga olgan majmuadir.”⁹⁰

“Jamiyat” tushunchasi esa, “kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui”⁹¹ sifatida izohlanadi. Jamiyatdagi barcha narsalar, moddiy va maʼnaviy boyliklar, insonlar yashashi uchun muhim boʻlgan shart-sharoitlarni yaratish maʼlum faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlarning hayotiy faoliyati, shuningdek, ular oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Maʼnaviy sohada insonlar turlicha maʼnaviy va moddiy qadriyatlarni yaratadi va bular jamiyatning turli qatlamlari tomonidan oʻzlashtiriladi. Demak, “jamiyat” deganda biz oʻzaro munosabatlar, institutlar va meyorlar, qadriyatlar va hayot tamoyillari asosida birlashtirilgan ijtimoiy harakatlar subyektlarining yigʻindisini nazarda tutamiz.

“Urush – millat (xalq)lar, ijtimoiy guruhlar, davlatlar orasidagi nizolarning, qurolli kuchlar yordamida kuch orqali hal qilinishi. Urushda asosan, qurolli kuchlardan hal qiluvchi vosita sifatida hamda kurashishning siyosiy, iqtisodiy, gʻoyaviy vositalaridan foydalaniladi. Urushlar davlatlarning ichki va tashqi siyosati natijasida vujudga keladi. Urush kelib chiqishiga turlicha omillar sabab boʻladi. Bu omillar urushning sodir boʻlgan davri va xususiyatiga bogʻliq boʻladi. Oldindan

⁸⁸ Ҳозирда ўзбек тилида “маданият” тушунчасига бериладиган мазмунни араблар “сақофа” термини билан ифодалайдилар. Иқтибос. Шермухамедов С. Маданият фалсафаси. – Тошкент: ТИУ, 2009. – 10 б.

⁸⁹ Эдуард Тайлор

⁹⁰ Абдурахмонов М, Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. – Тошкент: ЎзМУ, 2014. – Б14.

⁹¹ Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б.50.

tayyorgarlik ko'rilgan, ma'lum maqsad yo'lida olib boriladigan harbiy harakatlar urush hisoblanadi"⁹². Urushnig maqsadi buzish, vayron qilishga qaratilganligiga qaramasdan, u ijtimoiy madaniy hodisa hisoblanadi.

"Xavfsizlik" nazariyotchi Hasan Abulqosimov bergan ta'rifga asosan, insonlar hayoti va faoliyatida vujudga keladigan xavf va xatardan himoyalaniish, kafolatlanishdir"⁹³. Xavf-xatar esa, jamiyatning ravnaq topishiga, tinch turmush tarziga tahdid qiluvchi potensial yohud real omil, kuchdir. Xavfsizlik turlicha bo'lib, u butun jamiyat, davlat, insoniyat, iqtisodiy tizimning normal holatda faoliyat yuritishi, taraqqiy etishida zararli ta'sirlardan, xavf-xatarlardan himoyalaniish holati hisoblanadi. Umuman, ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot-faoliyatining normal amal qilishini ta'minlashda xavfsizlik, xavf-xatardan himoyalaniish sharti va strategiyasi sifatida yo'naltiriladi. Demak, O'zbekistonning harbiy xavfsizligi deganda O'zbekistonga qarshi qurolli zo'ravonlikka samarali qarshi kurashish va shu orqali uning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadigan jamoat munosabatlarining holati ko'zda tutiladi⁹⁴.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning oldida yangi xavfsizlik muammolari vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi Konsepsiyasida xavfsizlik kategoriyalariga siyosiy (tashqi va ichki tahdid); iqtisodiy (tashqi va ichki tahdid); ijtimoiy-gumanitar; harbiy; ilmiy-texnik, texnologik va axborot; ekologik xavf-xatarlari kiritilgan⁹⁵.

"Harbiy madaniyat" tushunchasi haqida esa, yuqorida aytib o'tganimizdek, oldingi ya'ni inqilobdan oldingi Harbiy ensiklopediyada tushunchalar keltirilmagan. Sakkiz jildli "Sovetskaya voyennaya ensiklopediya" ("Sovet harbiy ensiklopediyasi")da ham bunday tushuncha mavjud emas⁹⁶. Shu bilan birga 1997 yildan nashr etilgan "Novaya voyennaya ensiklopediya" ("Yangi harbiy ensiklopediya")da (5 jildi nashr qilingan),⁹⁷ shuningdek 1986 yilda nashr etilgan "Harbiy ensiklopedik lug'at"da⁹⁸ ham harbiy madaniyatga ta'rif keltirilmagan. "Словарь военных терминов" ("Harbiy atamalar lug'ati")da hamda 2002 yilda nashr etilgan "Военно-энциклопедический словарь" ("Harbiy ensiklopedik lug'at")da ma'lumotlar topa olmaymiz. Mamlakatimizda nashr etilgan "Harbiy atamalarning ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati"⁹⁹. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida R.Jumayev tomonidan tayyorlangan "Harbiy

⁹² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: ЎзМЭ,2008. –Б.158.

⁹³ Абулқосимов Ҳ.П. Иқтисодий хавфсизлик –Тошкент: Академия, 2006. –Б.6.

⁹⁴ Шу манба –Б.7.

⁹⁵ "Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлиги Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 1997 йил 29 август.

⁹⁶ Советская военная энциклопедия : –Москва:Военное изд-во М-ва обороны СССР, 1976.

⁹⁷ Российская Военная Энциклопедия. –Москва: Воениздат, 1997. — 639 с.:

⁹⁸ Военный Энциклопедический словарь –Москва: Воениздат, 1986. - 922 с.

⁹⁹ Иброҳим Раҳим Ҳарбий атамаларнинг русча-ўзбекча қисқача луғати – Тошкент.: Фан, 1993.

atamalar lug'ati"da, Sh.Z.Dolimov tomondan tayyorlangan "Harbiy atamalarning qisqacha lug'ati"¹⁰⁰da harbiy faoliyat sohasiga tegishli 585 tadan ortiq so'z sharhlanadi, lekin, "harbiy madaniyat" tushunchasi kiritilmagan.

2003 yili nashrdan chiqqan, o'zbek adabiy tili tarixini o'zida jamlagan, til va terminologiya tarixida muhim bo'lgan, 16 bosma taboqdan iborat yirik fundamental manba, ya'ni "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati"ning 2008 yili ikkinchi nashri e'lon qilindi. Mazkur lug'atda uch mingdan ortiq VIII-XIX asr turkiy tilda qo'llangan harbiy terminlarning izohi keltirilgan, lekin bu manbada ham harbiy madaniyat tushunchasi o'z sharhini topmagan. 2020 yilda f.f.d.polkovnik Samarov. R. "Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati" .(– Toshkent: "Innovatsiya Ziya", 2020. -382 b.)da ham bu tushuncha haqida ma'lumot berilmagan. Lekin, harbiy masalalarga oid so'zlarning juda ko'p to'plami, jamiyatning harbiy madaniyati haqiqatan ham hodisa sifatida mavjudligini aniq ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari tarixchi olimlar va yozuvchilarning ba'zi manbalarida, yoki xorijiy davlatlari olimlarining asarlarida harbiy madaniyat to'g'risida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Masalan mil. avv. 1 ming yillikka oid yozma yodgorliklar, muqaddas "Avesto" kitobida, shuningdek, axomaniylar davri kitobalarida (Naqshi Rostam, Bihistun, va b.) Turon va Movarounnahrning tabiiy shroiti, xalqlarining harbiy faoliyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yurtimizning boy tarixi hamda xalqimizning harbiy faoliyat haqida Ksenofont, Polibiy, Strabon, Ktesiy, Kursiy Ruf, Gerodot, Diodor, shuningdek, arman, xitoy, arab muallatlari tomondan yaratilgan yozma manbalarda uchratish mumkin. Asrlar mobaynida yurtimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hayoti va harbiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar tarixchilar, saroy yilnomachilari, podshohlar, xonlar tomonidan qo'lyozma shaklida jamlanib borilgan. Urxun-Yenisoy toshbitiklari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kabi asarlarida harbiy ishga oid ko'plab pandnomalarni uchratish mumkin.¹⁰¹ YA'kubiyning «Kitob al buldon» («Mamlakatlar xaqida kitob»), Tabariyning «Tarixi Tabariy», Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»; Nasafiyning «Kitob alqand fi tarixi Samarqand» («Samarkand tarixi haqida kitob») hududlar tarixiga doir – Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», kabi nodir qo'lyozmalarda O'rta Osiyo mamlakatlarining geografik joylashuvi, katta shaharlari aholisining turmush tarzi va bajaradigan mashg'ulotlari, karvon yo'llari va harbiy faoliyati, urushlar, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Fikrimizcha, lug'atlar va ensiklopediyalarda harbiy madaniyatga oid ta'riflarning yo'qligi, uni madaniyat shakli sifatida ajratish uchun asos yo'q, deb

¹⁰⁰ Долимов Ш.З. Харбий атамаларнинг қисқача луғати. – Тошкент: ЎМБ, 2007.

¹⁰¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: ЎзМЭ,2008. –Б.106.

ta'kidlashga sabab bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, bu borada 2006 yil rus harbiy tadqiqotchilari A.V.Korotenko, 2008 yil YE.N.Romanova, 2012 yil falsafa fanlari doktori V. N.Grebenkovlar tomondan harbiy madaniyat tushunchasiga bir necha ta'riflar keltirildi va ular nazariy asoslab berildi. Rossiyalik olim, falsafa fanlari doktori V.N.Grebenkovning fikricha: "harbiy madaniyat, ijtimoiy tafakkur va ma'naviy madaniyati elementlarini qamrab oladi. U harbiy sohada yagonalikni ta'minlovchi xulq- atvor pritsiplari, meyorlar, ideallarni o'z ichiga oladi. Harbiy madaniyatnig tarkibiy elementlari sifatida, jamiyatni harbiy himoya an'alarining avloddan avlodga o'tib kelishi, jamiyat himoyasi, mavjud meyor va qadriyatlar, konepsiyalar va armiyaga bo'lgan xalq e'tiqodini ko'rsatib o'tadi.¹⁰² Rus tadqiqotchisi A.B. Grigoryev esa, harbiy madaniyatni keng tushuncha, deb talqin qiladi. Bunga harbiylarning tili, tafakkuri, etikasi, falsafasi kiradi. Amaliy jihatdan jismoniy madaniyat bilan harbiy madaniyat bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Harbiy madaniyat harbiy kuchlarni tizimli faoliyatini, harbiy faoliyat qoidalarini va harbiy sohada o'rnak bo'ladigan holatlarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga keladi¹⁰³.

Bizning nazarimizda, harbiy madaniyat tushunchasini muhim xususiyatlarini nazariy-uslubiy jihatdan chuqur, har tomonlama tahlil qilinishda, unga bog'liq yoki sinonim tushunchalarning doirasini aniqlash va tahlil qilish o'ta muhimdir. Shundan kelib chiqib, harbiy madaniyatga eng yaqin tushuncha "harbiylar madaniyati" tushunchasini tahlil qilamiz. Ta'kidlash joizki, ko'p tadqiqotlarda ushbu tushunchalarga sinonim deb qaraydilar, chunki ularning mohiyatan farqi sezilarli darajada emas. Nazarimizda, bu tushunchalarni farqlash uchun ularni ma'nosini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Podpolkovni Sh.Z.Dolimov ishlab chiqqan "Harbiy atamalarining qisqacha lug'ati" da "harbiy xizmatchi" - armiyada xizmat qiluvchi, armiyadagi xizmatga aloqador shaxs, "jangchi" - dushman bilan jang qiladigan, vatanini qurolli himoyachisi¹⁰⁴. Ko'rinib turibdiki, "harbiy xizmatchi" tushunchasi "jangchi" tushunchasiga qaraganda tor ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, "jangchi" tushunchasini ko'proq harbiy tadbirlarda harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi. Shuni alohida ta'kidlash keraki, qurolli to'qnashuvlarda qatnashadigan har qanday shaxsga nisbatan "jangchi" so'zini qo'llash mumkin, u harbiy xizmatga aloqador bo'lmasa ham. Harbiy xizmatchi esa, hayoti armiya faoliyati bilan bog'liq, vatan himoyasi uchun doim tayyor turadigan shaxs. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "harbiy xizmatchi" tushunchasi "jangchi" tushunchasiga nisbatan torroq ma'no kasb etadi. Demak, ikkala tushuncha bir biridan farq qiladi. Yuqoridagi fikrlardan, "harbiy madaniyat" bilan "harbiylar

¹⁰² Гребеньков В.Н. Военная культура российского общества: философско-культурологическая концепция: Дисс. к. филос. н. – Ставрополь: 2011. – 272с.

¹⁰³ Григорьев А. Военная культура: где точка опоры? // Вестник границы России. - № 1.-2000.-С.44.

¹⁰⁴ Долимов Ш.З. Харбий атамаларнинг қисқача луғати. – Тошкент: ЎМВ, 2007. – 82 б.

madaniyati” o’rtasidag farqni ajratib olsa bo’ladi. Bundan harbiy madaniyat, moddiy va ma’naviy mehnat bo’lib, shu sohaga tegishli bo’lgan qadriyatlar, meyorlar, axloqiy qoidalarni o’z ichiga oladi va harbiy xizmatchilar ongiga maqsadli ravishda singdiriladigan harbiy faoliyatni tashkil qilishning o’ziga xos usuli, degan xulosaga kelish mumkin. Shuni alohida aytish keraki, harbiy madaniyat haqida fikr yuritganimizda, armiya madaniyatini jamiyatning harbiy madaniyatidan ajratishimiz kerak, sababi jamiyat harbiy madaniyatida haqiqiy armiya madaniyati elementlaridan tashqari ijtimoiy sohaga tegishli bo’lgan harbiy ong elementlarini ko’rishimiz mumkin. “Harbiylar madaniyati” esa, qurolli to’qnashuvlarda qatnashadigan shaxslarga tegishli bo’lgan axloqiy normalar, qonun-qoidalar va qadriyatlarni qamrab oladi. Fikrimizcha, harbiylar madaniyatini harbiy madaniyatining bir qismi sifatida ko’rish maqsadga muvofiq, yuqoridagi fikrlarimiz esa bunga asos bo’ladi.

Tadqiqot obyektimiz bo’lgan harbiy madaniyatning muhim xususiyatlarini nazariy-uslubiy jihatdan tahlil qilishda «harbiy ishlar» tushunchasini ko’rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Agar biz Sh.Z.Dolimov tomondan tuzilgan “Harbiy atamalar lug’ati”dagi ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “harbiy ishlar” qo’shinlar jangovar tayyorgarligining maqsadi, dasturi, uslubiyati, yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash ishlarini anglatadi. Keng ma’noda esa, harbiy nazariya va amaliyotdagi barcha masalalarni, ya’ni urush holatiga aholini tayyorlash, urush va tinchlik davrida qo’shinlarning tuzilishi, tayyorgarligi va harakatlari tushuniladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmat uchun mas’ul bo’lganlar, o’zlarining harbiy burchlarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun zarur bo’lgan maxsus bilim, ko’nikma va ko’nikmalar tizimidir. Ushbu bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirish uchun muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar va chaqirilishga qadar bo’lgan yoshdagi harbiy xizmatchilar harbiy tayyorgarlik kursidan o’tadilar¹⁰⁵.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, «harbiy madaniyat» tushunchasining «harbiy ishlar» tarkibiga kiritsak, harbiy madaniyatning ijtimoiy hodisa doirasi sezilarli darajada torayadi va unda faqat harbiy xizmatchilarning harbiy madaniyati tushuniladi va ushbu yondashuv bilan boshqa madaniy mavzular tahlildan tashqarida qoladi. Demak, harbiy madaniyat harbiy ishlarga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Endi esa, harbiy madaniyatni tahlil qilishda «harbiy soha» tushunchasini kiritish qanchalik maqsadga muvofiqligini ko’rib chiqamiz. Ta’kidlash joizki, armiyada harbiy sohaning o’zigagina xos xususiyatlari mavjudligini hisobga oladigan

¹⁰⁵ Военное дело // Военный энциклопедический словарь / Гл. ред. А. П. Горкин. — Москва: Большая российская энциклопедия, 2001. — Т. 1. — С. 305.

bo'lsak, harbiy harakatlar jarayonida harbiy sohani alohida ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Harbiy sohada harbiy siyosat maqsadlari shaxsiy tarkib, qurol-yarog', harbiy texnika va harbiy infratuzilma orqali amalga oshiriladi, shuningdek, harbiy siyosatni ishlab chiqishda urush qurollari ishlab chiqiladi va ishlatiladi. Bundan tashqari, davlatning ma'lum bir siyosiy maqsadiga erishish uchun olib boradigan qurolli to'qnashuvlariga tayyorlanish va amalga oshirish uchun mablag'larni yo'naltiradigan mexanizm hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan "harbiy ishlar" tushunchasiga nisbatan "harbiy soha" tushunchasi kengroq ma'no anglatishini guvohi bo'lamiz. Biz yuqorida harbiy madaniyatining sinonim tushunchalarning doirasini, ya'ni "harbiylar madaniyati", "harbiy soha", "harbiy ishlar" tushunchalarini tahlil qildik. Biz foydalanadigan terminologiyaga oid yuqoridagi tushunchalar tahlili ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning harbiy madaniyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б.53.
2. Ҳозирда ўзбек тилида "маданият" тушунчасига бериладиган мазмунни араблар "сақофа" термини билан ифодалайдилар.Иқтибос. Шермухамедов С.Маданият фалсафаси. -Тошкент: ТИУ,2009. –10 б.
3. Abdurahmonov M, Rahmonov N. Madaniyatshunoslik. –Toshkent: O'zMU,2014. – B14.
4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik –Toshkent: Akademiya, 2006. – B.6.
5. "O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1997 yil 29 avgust.
6. Российская Военная Энциклопедия. –Москва: Воениздат, 1997. – 639 с.:
7. Военный Энциклопедический словарь –Москва: Воениздат, 1986. - 922 с.
8. Иброҳим Раҳим Ҳарбий атамаларнинг русча-ўзбекча қисқача луғати – Тошкент.: Фан, 1993.
9. Долимов Ш.З. Ҳарбий атамаларнинг қисқача луғати. – Тошкент: ЎМВ, 2007.